


9. Taqrizchilar:

Muhibova U.U. - TDShI, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo tillari” kafedrası mudiri, fil.f.d.

Nurmatov S.S. - “Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo tillari” kafedrası o'qituvchisi, f. f.n.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

(OTM rektori)

2020 yil “28” 08



“KELISHILDI”

Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi

2020 yil “28” 08

Ro'yxatga olindi: № MD-5A120102

2020 yil “28” 08

O'RGANILAYOTGAN MAMLAKATDA TIL VAZİYATI VA SIYOSATI
(POKISTON)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:

100000 – Gumanitar soha

Ta'limgohasi:

120000 – Gumanitar fanlar

Mutaxassislik:

5A120102 – Lingvistika (sharq tillari)

Fan/modul kodi 5AMTV225		O'quv yili 2020-2021	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2,4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati va siyosati		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni				
Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda hindiy va urdu tillari ichki tizimiga xos tarkibiy qismlarini tadqiq etishda kuzatilayotgan nazariy muammolarni bayon etib umumlashtirish orqali yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Fanning vazifasi talabalarga hindiy va urdu tillarini ilmiy o'rganish metodlari, xususan, fonetika, morfologiya va sintaksis bo'limlariga oid tushuncha va birliklarini nazariy jihatdan anglab olish hamda til matnlari asosida bunday hodisalarni tahlil qila bilishni shu fan tamoyillaridan kelib chiqqan holda o'rgatishdan iborat.					
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1- mavzu. Til vaziyati va sosiolingvistika «Til vaziyati» atamasining tushunchasi, uning boshqa sosiolingvistik tushunchalardagi o'rni va ahamiyati. Til vaziyatining sosiolingvistikani bir bo'lagi sifatida funksional tilni o'rganishi. Til vaziyatini o'rganishning sinxron va diaxron aspektlari. Til vaziyatini o'rganishda erishilgan yutuqlar. Til vaziyati va til siyosati, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'siri. Til vaziyati turlari. Ko'p tilli mamlakatlarda til vaziyatining xususiyati va o'rganish ahamiyati.					
2- mavzu. Til vaziyatining muhim omillari Hindiston misolida til vaziyatining omillari; Sub'ektiv va ob'ektiv omillar; Ularning o'zaro bog'liqligi va til vaziyatini o'rganishdagi ahamiyati; «Til vaziyati» predmetining maqsad va vazifalari, uning tuzilishi; Predmetning hind tilshunosligi bilan bog'liqligi va boshqa hindshunoslik fanlariga aloqadorligi; Hindistonda til vaziyatining rivojlanish davrlari;					
3- mavzu. Musulmonlar hukmronligi davrida Hindistondagi til vaziyati Musulmon mustamlakasidan avval Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol; Ushbu davrdagi hind tillarining shakllari va ularning jamiyatda					

yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar', №11. 2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b. 3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b 4. 4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b. 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz. 6. Zograf T.A. Yaziki Yujnoy Azii. -M, 1990. 7. Shamatov A.N. Ocherki istoricheskoy leksikologii xindi i urdu. -T., 1990 8. Xalmurzayev T.X. Status urdu v sovremennoy Indii i tendensii yego razvitiya. T., 1979 Axborot manbalari 9. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portal.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 10. www.hind.com 11. www.hindibhasha.com 12. www.hindilanguage.com.languageinindia.com 13. www.aksharamala.comwww.rajbhasha.gov.in 14. www.boloji.org 15. www.sahitya.com 16. www.hindiindiya.com www.hindischool.com	
7.	Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil "28" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "28" 08 dagi 452 - sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun mas'ul: Abdurahmonova M.H.- TDSHl, "Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo tillari" kafedrasida dosenti, f.f.n.

	referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • o'qitilayotgan sharh tilida yaratilgan maxsus adabiyot ustida ishlash, matn lingvistikasi: matnning fonetik, leksik-semantik, grammatik, uslubiy jihatlarini bilishi qoidalarini haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; • talaba matn tilining fonetik asoslari, fonetik tizimning davriylik masalasi; matnda qo'llanilgan lug'at tarkibi, lug'at tarkibining genetik asoslari; so'zlarning ma'no xususiyatlari; leksik birliklarning morfologik tadqiqi; so'z yasalishi masalalari yuzasidan ko'nikmalariga ega bo'lishi; • talaba matnning sintaktik xususiyatlari; matnda qo'llanilgan iboralar, maqol va boshqalarga xos sintaktik qurilmalar; ijodkor uslubi masalasi, ijodkor uslubining o'ziga xosligi; adabiy til uslublari va ularning matndagi ko'rinishi; matn talabi bilan til uslublarning tanlanishini tushuna olish tajriba va ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Shomatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish. -T.2003-2004. 1-3 qismlar. 2. Mirza Xalil Ahmad Beg.Urdu zaban ki tarix. Edukeshnal Buk Haus, Aligarh.2000\ Qo'shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017

ishlatilishi; Musulmon mustamlakasi davridagi hind tillarining holati va ularga turk, arab, fors tillarining ta'siri; 4- mavzu. Urdu tilining vujudga kelishi, uning areali Hindu va musulmon ikki tarixiy-madaniy va diniy-ijtimoiy stereotiplarni yaratilishida kxari bolining roli; Uning o'z hududidan tashqarida ishlatilishi; Hindiyl tilining ushbu davrda qo'llanilishi va uning areali; 5-mavzu. Urdu tilining boshqa milliy tillar orasidagi o'rni Mahalliy tillarning funksional rivojlanish xususiyatlari (urdu tili misolida); Urdu tilining rasmiy, yuridik va ta'lim sohalaridagi o'rni; 6- mavzu. Urdu matbuoti Urdu tili mohiyatining o'zgarishi; 18 asrning ikkinchi yarmidan Kal'kuttada birinchi ingliz gazetasining chop etilishi. "Jaame jahaannuma" urdu gazetasining bosilib chiqishi. 7- mavzu. Ikkinchi davr Hindistonda ingliz mustamlakasi davridagi til vaziyati 19-asrning birinchi yarmida Hindistondagi til vaziyatining xususiyatlari; Hind ziyolilarining g'arb ta'limi va ingliz tiliga bo'lgan munosabati. Hindistonda ingliz tilining qo'llanilish sohalar; Urdu (xindustani) va ingliz ikki tillik munosabatlari; Hind ziyolilarining g'arb madaniyati, ta'limi, ingliz tiliga nisbatan bo'lgan turli yondashuvlari. 8- mavzu. 19 asrning ikkinchi yarmida Hindistondagi til vaziyatining xususiyatlari Urduni musulmonlar, hindiyni xindular tiliga aylana boshlashi; Diniy islohotchi va ma'rifatparvar S.A. Xon va «Qaum» atamasining izohi; S.A. Xonning hindiy va urdu tillariga bo'lgan qarashining o'zgarishi; Urdu-hindiy oppozitsiyasining diniy alomatlarga asoslangan xususiyatlari; Ingliz hukumatining til siyosati va ularning xindu-musulmon ziddiyatlariga yondashuvi. 9- mavzu. 20 asr boshlarida Hindistondagi til vaziyatining xususiyatlari Hindu-musulmonlar o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishi, uning til muammosiga ta'siri; Ingliz tili Hindiston davlat tili sifatida, uning jamiyatdagi o'rni; Ingliz mustamlakachilarining ingliz tilini yoyishda qo'llagan chora-tadbirlari, ularning gorizonta va vertikal stratifikatsiyasi; Ta'lim sohasida ingliz tili; Hindistonda ikki tilli matbuot; Hindistonda ingliz tilidagi adabiyotlarning vujudga kelishi va rivojlanishi; Hind-ingliz ikki tilligining xususiyatlari; Til muammosida Hindiston siyosiy partiyalari (Hindiston Milliy Kongressi, Musulmon Ligasi) rahnamalarining pozitsiyasi. 10- mavzu. Uchinchi davr Hindistonda mustaqillikdan keyingi til vaziyati Hindistonning zamonaviy lingvistik xaritasi; Hindiston tillari va til shakllari; Mahalliy aholining «ona til» atamasini tushunishiga etnik hamda

ijtimoiy-psixologik omillarning ta'siri; Ushbu atamaning qo'llanilishi; Hindistonda mavjud asosiy tillarni aniqlovchi mezonlar; J. Neruning Hindiston tillari haqidagi fikri. «Bir til - bir shtat» formulasining vujudga kelishi va amalda qo'llanilishi.

11- mavzu. Hindiston lingvoareali

Hindiston hududining lingvistik arealga bo'linish omillari; Xindiy, urdu va ingliz tillarining o'rni; Avadxi, braj, bundelkxandi, bxojpuri, garxvali, kumayuni, maytxili, chxattisgarxi, kauravi, kannauji, xariani (xarianvi), bagxeli, magaxi, malvi, paxar tillarining o'rni va qo'llanilishi; Panjobiy, kashmiriy, urdu tillarining ushbu arealdagi o'rni va ularning jamiyatda ishlatilishi; Arealda hindiy va ingliz tillarining o'rni, ularning mahalliy tillar bilan munosabati.

12- mavzu. Hind tillarining funksional shakllari

Hindiston Respublikasining davlat tillari: asosiy va yordamchi tillar; «Davlat tili» atamasining diaxron jihatdan o'zgarishi (transformasiyasi); Hindiy tili - milliy til sistemasi. «hindiy tili» atamasining tushunchalari; Hindiy tilining tor va keng ma'nolari. G'arbiy va sharqiy hindiy; Hindiy va hindustanining o'zaro aloqadorligi. Hindiy tilining gorizonta va vertikal stratifikatsiyasi; Hindiy tili milliy til tizimida kxari bolining o'rni; Hindiy va urdu o'rtasidagi diaxron munosabatlar; XIII-XIV asrlarda hindaviy yoki hindvi, hindiy; XVII-XVIII asrlarda urdu tili; XIX asr boshida hindiy va urdu; Urduni himoya qilishda musulmon ma'rifatparvarlarining faoliyati; Hindiston til vaziyatida ingliz tilining o'rni.

13- mavzu. Hind tillarining funksional shakllari

Shtat va ittifoq hududlarning rasmiy tillari; Ushbu tillarning hududni ijtimoiy hayotida qo'llanilishi; Ularning hindiy va ingliz tillari bilan munosabati; Hindiston qabilalarining til shakllari: til, sheva, lahja; Qabilalarning joylashuvi va ularning til shakllariga boshqa tillarning ta'siri (bxili qabilasi misolida); Norasmiy tillarning rasmiy tillar bilan aloqasi va uning natijasi.

14- mavzu. Til vaziyatining tipologiyasi

«Til vaziyati tipologiyasi» atamasining mohiyati; Til - funksional o'zaro differensial shakllar tizimi; Tilning adabiy shakllari, hududiy shevalari, so'zlashuv shakllari shahar koyne (gorodskoe koyne), kasbga oid jargonlar va hokazo; Adabiy tilning uslubiy shakllari; Tilning yasash jihatidan shakllari: umumiy milliy til, milliy til, sheva, lahja va hokazo.

15- mavzu. Nutq uslublari

Funksional jihatidan uslublari: rasmiy, badiiy-adabiy, ilmiy va hokazo; Ko'rinish jihatidan shakllari: yozma, og'zaki;

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'icha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Til vaziyatining omillari; Til vaziyati atamasining tushunchasi, uni sosiolingvistikaga aloqadorligi;
2. Til vaziyatining ob'ektiv faktorlari; Til vaziyatining sub'ektiv faktorlari;

3. Ost-Indiya kompaniyasining til siyosati; Ingliz tilining mahalliy tillar tizimidagi o'rni;
4. Urdu-hindiy muammosining xususiyati; Hindiy tilini tarqatish va unga rasmiy maqom berishda ijtimoiy tashkilotlarning faoliyati;
5. Hindiy va urdu tillarining ijtimoiy-funksional shakllari;
6. Hind jamiyatida ingliz tilining o'rni;
7. Umum Hindiston davlat til harakati, ushbu davrdagi ikki tillik va ko'p tillik;

8. «Hindiston tillari», «hind tillari», «hindoriy tillari» atamalarining ishlatilish xususiyatlari;

9. Amalda va rasmiy hujjatlarda ko'rsatilgan hind tillari;

10. Hindistonda ingliz mustamlakasidan avvalgi til vaziyati;

11. Hindiy va urdu tillarining o'zaro aloqadorligi va sosiolingvistik muammosi;

12. Mahalliy til shakllarida kxari bolining o'rni, ushbu davrga tegishli urdu, xindustani atamalarining tushunchasi va ularning amalda yuritilishi;

13. Hind-fors ikki tilligining xususiyatlari;

14. Hindiy va urdu tillarining o'zaro aloqadorligi;

15. Hozirgi Hindistonda ingliz tilining ishlatilishi;

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Diaxronik nuqtai nazardan hindistondagi til vaziyati;
 2. Hindistondagi til vaziyatining dinamikasi;
 3. Hindiy tili milliy til tizimi sifatida;
 4. Hindistondagi til vaziyatining tipologiyasi;
 5. Hindistonda til ishlatilishida davlatning til siyosati;
 6. Hindiston til vaziyatining yaratilishida ob'ektiv va sub'ektiv faktorlar;
 7. Hindistondagi hindiy va urdu tillarining lingvistik va ekstralingvistik muammolari;
 8. Hindistondagi ingliz tilining o'rni;
 9. Hindistonning lingvoareallari;
 10. Hindistonda ikkitillik va ko'ptillik muammosining xususiyatlari;
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan